



**EOC**  
EUROASIAN  
ONLINE  
CONFERENCES

# ENGLAND CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON  
MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND  
EDUCATION**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi digital object  
identifier

eoconf.com - from 2024



**INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION:** a collection scientific works of the International scientific conference – London, England, 2026. Issue 7

**Languages of publication:** Uzbek, English, Russian, German, Italian, Spanish

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference «**INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION**». Which took place in London 2026.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.





## Asrlar qa'ridagi nur: Xizr siymosining diniy-ma'naviy talqini

Mamajonova Ruhshona A'zamjon qizi

Farg'ona davlat universiteti talabasi

**Annotatsiya:** mazkur maqolada islom an'analarida alohida o'rin tutuvchi Xizr siymosi, uning diniy talqini, Qur'on oyatlari asosidagi qarashlar hamda ulamolar o'rtasidagi turli fikrlar yoritilgan. Unda Xizr alayhissalomning kimligi, uning payg'ambar yoki valiy ekanligi haqidagi bahslar, hayot ekani yoki vafot etgani masalasi tahlil qilinadi. Shuningdek, xalq og'zaki ijodida va sufiylik an'analarida Xizr obrazining ma'naviy timsol sifatidagi o'rni ko'rsatib beriladi. Maqolada diniy rivoyatlar va ilmiy qarashlar asosida Xizr siymosining insoniyat tafakkuridagi ahamiyati ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Allohning quli, obi hayot, yam-yashil, umri boqiy, Balyo, Abul Abbas, Allohning bandasi, mangu hayot.

Xizr, Hazrati Xizr, Xizr buva — islom rivoyatlaridagi shaxs, taqvodor inson. Xizr Qur'onda tilga olinmagan, lekin ulamolar Qur'onda „Allohning quli“ nomi bilan tilga olingan shaxsni Xizr deb talqin qiladilar. Xizrga odamlarda Allohga bo'lgan e'tiqodni qo'llab turish uchun Iso, Ilyos va Idris singari abadiy hayot ato etilgan. U hayot bulog'idan „obi hayot“ ichgan va umri boqiy bo'lgan. O'ng qo'lining bosh barmog'i suyaksiz bo'lishi, nogahonda yo'liqib, bir zumda ko'zdan g'oyib bo'lishi Xizrga xos belgi sanaladi. Rivoyatlarga ko'ra, Xizr orollarda yashaydi, osmonda uchadi, dunyo bo'ylab kezib yuradi, har yili haj qiladi, juma kunlari Makka, Madina va Quddus shaharlaridagi masjidlarda namoz o'qiydi. Dengizda suzuvchilarga homiylik qiladi, maxsus duolar bilan chaqirilsa, yordamga keladi. Suvga cho'kayotganlarni qutqaradi, yong'inni o'chiradi, o'g'rilar xurujidan, jinlarning xiylalaridan, ilon chaqishidan asraydi. Chol, suvori yoki yo'lovchi ko'rinishida paydo bo'ladi, dehqon dalasiga yoki xirmonga nazar tashlasa, hosil barakali bo'ladi va hokazo. Sufiylar Xizrni avliyolar piri sifatida e'zozlaydi. Islom an'anasida Xizrning umri boqiy deb talqin etilganiga qaramay, musulmon mamlakatlarida Xizrning bir qancha qabri bor va ular musulmonlarning ziyoratgohlariga aylantirilgan. Xalqimizda "Xar kelganni Hizr bil" degan ibora bor.

Xizr alayhissalom haqida gap ketar ekan dastlab u zotni ko'rgan kishilarning zavq bilan qilgan rivoyatlari xayolga keladi. Shu bilan birga u zotning hayot ekanini qattiq inkor qiladigan va u zotni hayot deydiganlarni zalolatga ketganlikda ayblaydiganlarning iddaolari nargi rivoyatlardan olingan zavqlarning mazasini taxir qilib turadi. Shu ma'noda ushbu masala bo'yicha ikki tarafning dalillari va ulardan olingan xulosalar bilan yaqindan tanishish ko'plab tushunmovchiliklarga oydinlik kiritadi. Xizr so'zi lug'atda "yam-yashil" ma'nosini anglatadi. Bu zotning Xizr deb atalishiga ikkita sabab keltirilgan: Bu zot qurib sarg'ayib qolgan o't-o'lanlarning ustiga o'tirganida, o'tirgan joydagi o't-o'lanlar chayqalib yam-yashil bo'lib qolgan. Bu zot qayerda namoz o'qisa, yon atroflari yam-yashil bo'lib qolgan. Ushbu karomat sababli u zot Xizr deb atalgan. Ulamolar Xizr alayhissalomning ismi sharifi haqida quyidagilarni aytganlar: "Xizr aslida u zotning ulug' nomi bo'lib, ismi Balyo, kunyasi Abul Abbas bo'lgan".







Xizr alayhissalom haqidagi ixtilofli qarashlarni ikki turga ajratish mumkin: Xizr alayhissalom payg‘ambar yoki valiy zotmi? Xizr alayhissalom hozir tirikmi yoki vafot etganmi? Xizr alayhissalomning payg‘ambar yoki faqat valiy zot ekani haqidagi ixtiloflarda u zotning payg‘ambarligini tasdiqlaydigan ulamolar ko‘pchilikni tashkil qiladilar. Ayrim ozchilik ulamolar esa Xizr alayhissalomni payg‘ambar bo‘lmagan deganlar.

Xizr alayhissalomni payg‘ambar bo‘lmagan deydiganlar quyidagicha dalil keltirganlar:

– “Qur’onda u zot nabiyyo rasul deb sifatlanmagan, balki banda deb sifatlangan. Bas, bandalarimizdan bir bandani (Xizrni) topdilar. Biz unga o‘z dargohimizdan rahmat ato etgan va o‘z huzurimizdan ilm bergan edik”. Shunga ko‘ra agar u zot payg‘ambar bo‘lganida albatta boshqa payg‘ambarlar singari nabiyyo rasulligiga dalolat qiladigan biror sifat bilan zikr qilingan bo‘lar edi”.

Xizr alayhissalomni payg‘ambar bo‘lgan deganlar esa bu dalilga quyidagicha javob berganlar: “Allohning bandasi degan vasf yuksak maqom bo‘lib, bunday maqom bilan Qur’onda payg‘ambarlar vasf qilingan. Xizr alayhissalomni payg‘ambar bo‘lmagan deydiganlar yana quyidagi dalilni keltirganlar: – “Payg‘ambarlar qavmlariga ilohiy topshiriqlarni yetkazuvchi va ularga nasihat qiluvchi bo‘lganlar. Nuh alayhissalom aytganlaridek: “Sizlarga Robbimning topshiriqlarini yetkazurman va sizlarga nasihat qilurman”. Ammo bu zotning biror qavmga ilohiy amrlarni yetkazuvchi yoki nasihat qiluvchi bo‘lmaganlari bilittifoqdir. Shunga ko‘ra u zot payg‘ambar emas balki valiy zot bo‘lgan. Xizr alayhissalomni payg‘ambar bo‘lgan degan ulamolar bu dalilga quyidagicha javob berganlar: “Payg‘ambarlar Qur’onda rasul (elchi) va nabiyy (xabardor qilingan) sifatleri bilan zikr qilingan. Bu ikki sifat o‘rtasida farq bo‘lib, sizlar dalil qilib keltirgan oyat rasul payg‘ambarlarning sifatidir. Xizr alayhissalom esa rasul emas balki nabiyy payg‘ambar bo‘lganlar. U zotning payg‘ambar bo‘lganini quyidagi dalillar qo‘llab-quvvatlaydi:

– Valiylarga payg‘ambarlar ergashmaydi. Balki payg‘ambarlarga valiylar ergashadi. Shu ma’noda Muso alayhissalom Xizr alayhissalomdan unga ergashishni so‘ragan. Bu esa Xizr alayhissalomning payg‘ambar bo‘lganiga dalolat qiladi: Muso unga: “Senga bildirilgan bilimdan, menga ham to‘g‘ri yo‘lni ta’lim berishing uchun senga ergashsam maylimi?”, – dedi”. E’tibor berilsa, Muso alayhissalom payg‘ambar bo‘la turib Xizr alayhissalomdan ta’lim olgan. Ta’lim oluvchi esa muallimga ergashuvchi bo‘lishi hech kimga sir emas. Shunga ko‘ra Muso alayhissalomdek payg‘ambar, payg‘ambar bo‘lmagan kishiga ergashmagan. Balki o‘zlari singari payg‘ambardan ta’lim olgan.

Xizr alayhissalomning hozir hayot ekani yoki vafot etgani haqida ixtilof qilingan. Ya’ni ba’zi ulamolar u zotning hozir hayot ekanini inkor qilishgan bo‘lsa, ba’zilari u zotni hozir hayot deganlar. Shu ma’noda ushbu masala bo‘yicha ikki tarafning dalillari va ulardan olingan xulosalar bilan yaqindan tanishish ko‘plab tushunmovchiliklarga oydinlik kiritadi. Xizr alayhissalomning hayot ekanini inkor qiladiganlar quyidagicha dalil keltirganlar: – Qur’oni karimda shunday xabar berilgan: “(Ey Muhammad!) Biz sizdan avval biror odamzodga mangu hayot bergan





emasmiz”. Ushbu oyat taqozosiga ko‘ra Xizr alayhissalom ham boshqa odamzodlar singari vafot etgan. Chunki Alloh taolo biror odamzodga mangu hayot bergan emas. Xizr alayhissalomni hayot deydiganlar bu dalilga quyidagicha javob berganlar: – Bu oyat Xizr alayhissalomning vafot etganiga dalolat qilmaydi. Chunki oyatda mangu hayot inkor qilingan. Shunga ko‘ra, Xizr alayhissalom hozir hayot bo‘lsalarda qiyomatga yaqin vafot etadilar, mangu yashamaydilar, deb tushunish mumkin. Masalan Iso alayhissalomdan oldin dunyoga kelgan bo‘lsalarda hozir u zot tirik. Ammo u zot ham kelajakda yer yuziga tushganlaridan so‘ng vafot etadilar. Shuning uchun bu oyat Xizr alayhissalomning vafot etganiga qat’iy dalil hisoblanmaydi. Ba’zi ulamolar mazkur qarashlarning o‘rtasini quyidagicha muvofiqlashtirganlar: “Xizr alayhissalom vafot etgan bo‘lishi va Alloh taolo u zotning ruhini ba’zi solih kishilarga turli qiyofalarda ko‘rinadigan qilgan bo‘lishi mumkin. Chunki u zotning ba’zida yosh, ba’zida keksa bo‘lib ko‘rinishlari, hech narsa yeb-ichmasliklari hamda u zotni biror makonga kirishdan to‘siqlar to‘sa olmasligi shunga dalolat qiladi”. Shunga ko‘ra Xizr alayhissalomning ba’zi solih insonlarga ko‘rinishi mumkinligi mo‘tabar qavl hisoblanadi.

**Xulosa.** qilib aytganda, Xizr alayhissalom siymosi islom madaniyatida chuqur ma’naviy mazmunga ega bo‘lgan obrazlardan biridir. U haqidagi qarashlar asrlar davomida turli ulamolar tomonidan turlicha talqin qilingan bo‘lsa-da, Xizr obrazi yaxshilik, hidoyat, ilm va ilohiy rahmat timsoli sifatida qadrlanib kelgan. Uning payg‘ambarligi yoki valiyliги, hayot ekani yoki vafoti haqidagi bahslar diniy tafsir va rivoyatlar doirasida davom etib kelmoqda. Shunga qaramay, xalq ongida Xizr ezgulik keltiruvchi, yordam beruvchi va insonni yaxshilikka undovchi muborak siymo sifatida saqlanib qolgan.

